

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLILIKNI RIVOJLANTIRISH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLARI

M.X.Nishanova

TDPU, o'qituvchi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15133200>

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish mezonlari va ko'rsatkichlari chuqur tahlil etilgan va ular haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetentli, muloqot, kognitiv, hissiy va xulqiy komponentlar, kommunikativ qobiliyat.

КРИТЕРИИ И ПОКАЗАТЕЛИ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация. В данной статье глубоко проанализированы критерии и показатели развития коммуникативной компетентности у будущих учителей и предоставлена подробная информация о них.

Ключевые слова: коммуникативная компетентность, общение, когнитивный, эмоциональный и поведенческий компоненты, коммуникативные способности.

BASIS AND INDICATORS OF DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

Abstract. This article deeply analyzes the criteria and indicators of development of communicative competence of future teachers and provides detailed information about them.

Keywords: communicative competence, communication, cognitive, emotional and behavioral components, communicative abilities.

Bugungi kunda pedagogik oliy ta'lim muassaslarida talabalarni ijtimoiy-gumanitar nuqtai nazardan tayyorlash jarayonini takomillashtirish, bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ kompetentlik shakllanganligining maxsus mezonlari, ko'rsatkichlari hamda darajalarini aniqlash o'ta zarur ekanligini ko'rsatdi. Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish samarali muloqotda shaxsning o'ziga xos xususiyatlaridan hisoblanadi. Muloqot samaradorligini oshirish uchun muloqot uchun ahamiyatli bo'lgan shaxs xususiyatlaridan tashqari turli vaziyatlarda samarali hamkorlik faoliyati usullarini egallash ham muhim hisoblanadi.

Muloqotdagi sheriklarning bir-birini tushunishlari va empatiyasini to'liq ta'minlovchi muloqot usullari, uslublari va vositalari samarali muloqot texnologiyalari deb ataladi.

Masalan, “faol tinglash” texnologiyasi asosida muloqot samaradorligini ta’minlovchi alohida kommunikativ ko’nikmalar qatoriga quyidagilar kiradi:

- diqqatini notiqqa qarata jamlay olishi;
- ma’lumotning umumiy mazmuni hamda ayrim qismlarini to’g’ri tushunayotganligini aniqlash;
- olingan ma’lumotni suhbatdoshlariga boshqacha so’zlar bilan yetkaza olish;
- tinglash davomida so’zlovchi nutqini bo’lmaslik, maslahat berishga, tanqid qilishga urinmaslik, xulosa chiqarmaslik, javob tayyorlashga chalg’imaslik. Bu faoliyatni keyinroq siz diqqat markazida bo’lganingizda qilish mumkin, bunda sizni tinglashlari va tushunushlari uchun harakat qilish lozim;
- ma’lumotlarni ma’lum ketma-ketlikda bayon etish va siz tomondan uzatilayotgan ma’lumotlarni tinglovchilar to’g’ri qabul qilganliklariga ishonch hosil bo’lmaguncha yangi ma’lumotlarga o’tmaslik;
- muloqot davomida o’zaro ishonch, o’zaro hurmat muhiti barqaror bo’lishini ta’minlash, suhbatdoshga nisbatan empatiya namoyish qilish;
- muloqotning noverbal vositalaridan foydalanish.

Samarali bahs olib borish, nizo davomida o’zini to’g’ri tutish, o’z hissiyotlarini nazorat qilish, g’azabni boshqarish kabi texnologiyalar mavjud. Shaxs xususiyatlarini rivojlantirish va korreksiya qilish, kommunikativ qobiliyat va ko’nikmalarni rivojlantirish uchun nizo davomida o’z hissiyotlarini nazorat qilishni o’rganishda autotrening va ijtimoiy-psixologik treninglarning o’rni katta.

Mazkur texnologiyalar ham auditoriya, ham auditoriyadan tashqari mashg’ulotlar uchun mo’ljallangan bo’lib, ulardan ijtimoiy-gumanitar fanlarni o’qitish, to’garak mashg’ulotlari, turli seminar treninglarni tashkil etish jarayonida, volontyorlik guruhlarini faoliyatida samarali foydalanish mumkin.

Tadqiqotda pedagogik OTM talabalarida kommunikativ kompetentlikni shakllanganligi mezonlari alohida sifat ko’rsatkichlar, uning darajalari esa mazkur mezonlarni tanlashga bog’liq bo’lgan miqdoriy tavsif sifatida belgilanadi.

Kommunikativ kompetentlikni tadqiq qilish uchun yuqori ahamiyat kasb etuvchi mezonlar (yohud komponentlar) sifatida **“ifoda”** deb ataluvchi insonning anglash jarayoni, uning hissiy tomonini – **“munosabat”**, shuningdek, **“murojaat”**ni vujudga keltiruvchi xulq mezonlari taklif etiladi. Shuning uchun “kommunikativ kompetentlik (yoki muloqotdagi kompetentlik), o’z ichiga kognitiv, hissiy va xulqiy komponentlarni qamrab oluvchi murakkab tuzilma hisoblanadi”.

Demak, bo'lajak o'qituvchi nafaqat qator kasbiy vazifalarni bajarishga tayyor bo'lishi kerak, balki tashkiliy-boshqaruvchilik faoliyatini olib borishga ham alohida e'tibor qaratishi lozim. Masalan:

- ta'lim oluvchilar jamoasining ishini tashkillashtirishi;
- ta'lim oluvchilarni boshqarish usullarini egallagan bo'lishi;
- boshqaruvga oid harakatlarni ishlab chiqish hamda qaror qabul qilish tartibini egallagan bo'lishi;
- ta'lim jarayonini tashkillashtirishda xavfsizlik talablaridan kelib chiqib o'quvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish.

Yuqorida keltirilgan talablar bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ kompetentlik darajasining shakllanganlik mezonlarini aniqlashda muhim asos bo'lgan o'lchovlar hisoblanadi.

Bu o'lchovlarga asoslangan holda bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ kompetentlikning umumiy mezonlarini aniqlangan (1-jadvalga qarang). Bunda kasbiy muloqotning barcha jarayonlarida, aynan tashkiliy va boshqaruvga oid qarorlar og'zaki shaklda qabul qilinishi e'tiborga olingan.

1 jadval

**Kommunikativ kompetentlik tarkibiy qismlarining
umumiy mezonlari**

Tarkibiy qismlari	Mezon va uning xususiyatlari
Kognitiv	Axborotli-kommunikativ mezon – bu o'rinda ma'lumot almashinishidagi kompetensiya tizimini egallash, shuningdek, kasbiy muloqot jarayonida insonlarning bir-birlarini anglashi nazarda tutiladi
Xulqiy	Muvofiqlashtiruvchi-kommunikativ mezon - nafaqat o'z xulqi balki boshqa insonlarning xulqini ham boshqarish va muvofiqlashtirish, hamkorlikdagi faoliyatni to'laqonli tashkil etishni anglatadi.
Hissiy	Hissiy muloqot mezoni. Ushbu mezonning o'ziga xosligi shaxsning hissiy sohasiga hamda alohida yondoshuvda va uning hissiy holatining o'zgarishida vujudga keladigan ehtiyojlariga muvofiqlashtirilishida aks etadi.

Komponentlar ko'rsatkichi deganda, kommunikativ kompetentlikning shakllanganligi haqida mulohaza qilish imkoniyatini beruvchi mezonlar, shuningdek, pedagogik sharoitni amalga oshirish bilan tashxis qo'yish modelini joriy qilish jarayonida talaba shaxsi rivojlanishida yuz beradigan o'zgarishlar ham nazarda tutiladi.

Kommunikativ kompetentlikning shakllanganlik darajasini aniqlash muammosi eng ko'p uchraydi, u uch bosqichda kuzatiladi: yuqori, o'rta, quyi. Mazkur bosqichlar quyidagi tartibda aniqlanadi: reproduktiv (qayta tiklash); evristik (ijodiy qayta tiklash); ijodiy. V.P.Bespalko o'z navbatida ularni to'rtga ajratadi: tanish; qayta tiklash (algoritmik faoliyat); murakkab tuzilishli sermahsul faoliyat (evristik faoliyat); sermahsul ijodiy faoliyat.

Shuni ham qayd etish muhimki, biror bosqichga tegishli ma'lum ko'nikmani egallagan bo'lajak o'qituvchi quyi bosqichni belgilovchi kompetensiyalarni egallagan bo'lishi umume'tirof etilgan fikr hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, umume'tirof etilgan hamda bosqichlarni o'zaro chambarchas bog'liq bo'lishini nazarda tutuvchi uch bosqichli tasnifga to'xtalib o'tamiz. Bunda har bir avvalgi bosqich, biz oldin taxmin qilganimizdek, keyingi bosqichni o'zlashtiradi: past – kasbiy muloqot sohasidagi barcha kompetensiyalar yuzaki (formal) ko'rinishga ega bo'lib, amaliy tavsifga ega emas; dialogga asoslangan munosabatlarga madaniyati to'liq shakllanmagan; insonlarning xulq-atvorini tahlil etish va baholay olish darajasi past; samarali tinglash, kuzatuvchanlik qobiliyatini egallamaganligi samarali muloqotga to'sqinlik qiladi; boshqa kishilar bilan kommunikativ aloqa o'rnatishda qiyinchilik sezadi; ayrim holatlarda boshqa insonlarning kechinmalariga mutlaqo befarq; kommunikativ muloqot vaziyatida o'z xatti-harakatlarini aniq baholay olmaydi; o'rta – kasbiy-pedagogik muloqotga oid kompetensiyalar empirik-vaziyatli tavsifga ega bo'lib, umumiy ko'rinish kasb etadi; dialogga asoslangan munosabatlarga qodir, biroq to'liq namoyon etmaydi; boshqa insonlar xulq-atvorini faqat intuitiv darajada farqlay oladi; samarali tinglash, kuzatuvchanlik qobiliyati o'rta darajada, bu esa, yanada samarali muloqotga to'sqinlik qiladi; muloqotning maqbul usullarini tanlay olish layoqatiga ega; o'z xatti-harakatini barcha vaziyatlarda ham to'g'ri baholay olmaydi; yuqori– kasbiy-pedagogik muloqotga oid kompetensiyalarga ega, yaxlit va tizimli ko'rinishda namoyon bo'ladi; dialogga asoslangan munosabatlar madaniyati shakllangan; boshqa insonlar xulq-atvorini to'liq tahlil etadi va baholaydi; talabaning tinglash, kuzatuvchanlik qobiliyati yaxshi rivojlangan, bu esa samarali muloqotga kirishiga to'liq imkon beradi; talaba boshqa kishilar bilan tezda aloqa o'rnatadi; boshqalarning kechinmalariga sherik bo'la oladi; muloqotning turli-tuman vaziyatlarida o'z xatti-harakatlarini adekvat baholashga qodir.

Shu asosdan kelib chiqqan holda bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish me'zonlari va ko'rsatkichlari juda ko'plab pedagog olimlar tomonidan o'rganilgan va tahlil qilinganini ko'rishimiz mumkin.

REFERENCES

1. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2006

2. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – Москва, 1995.
3. Засобина Г. А., В.С. Мухаммед. Исследование в педагогической деятельности преподавателя высшей школы. Иваново: «ИвГУ», 1997.
4. Сластенин В.А. Общая педагогика. В 2 ч. Ч. 2. – Москва, “Академия”, 2006.